





*Hayotning
hujayraviy shakllari*



*Organik olam ikkita katta dunyoga ya'ni,
prokariotlar va eukariotlarga bo'linadi.*






©Study.com

- **Prokariotlar** – yadrosi toʻliq shakllanmagan organizmlar yaʼni, haqiqiy yadroga ega emas. Irsiy belgilar nukleotidlarda joylashgan. DNK–dezoksiribo nuklein kislota halqasimon shaklda boʻladi. Jinsiy koʻpayish kuzatilmaydi.



- **Bakteriyalar.** Bakteriyalar Yer sharidagi sodda tuzilgan eng qadimgi va koʻz bilan koʻrib boʻlmaydigan sodda organizmlar hi sob lanib, huj ayrasida yadro rosmna shakllanmaganligi va oddiy koʻpayishi (boʻlinish yoʻli) bilan xarakterlidir, jinsiy koʻpayish uchra maydi.



- Xavfli kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalar orasida sil kasalligini qo'zg'atuvchi tayoqchasimon bakteriyaga qarshi davolash usullari va tegishli dori-darmonlar yaratilgan. Vatanimizda sil kasalligining oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida maxsus dispanserlar faoliyat ko'rsatib turibdi



- Kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalarga qarshi kurash chora-tadbirlaridan biri oldindan ***emlash*** hisoblanadi. Emlash orqali ichburug', ko'k yo'tal, qoqshol kabi xavfli kasalliklarning oldi olinadi.



**NEISSERIA
GONORRHOEAE**



**ACINETOBACTER
BAUMANNII**



**STAPHYLOCOCCUS
AUREUS (MRSA)**



**BURKHOLDERIA
CEPACIA**



**PSEUDOMONAS
AERUGINOSA**



**CLOSTRIDIUM
DIFFICILE**



**ESCHERICHIA
COLI (E.COLI)**



**MYCOBACTERIUM
TUBERCULOSIS**



**KLEBSIELLA
PNEUMONIAE**



**STREPTOCOCCUS
PYOGENES**

- Bakteriyalar tabiatda va inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Ularning foydali va zararli tomonlari bor. Foydali jihatlari – organik moddalarning parchalanishi, chirishi va achishini amalga oshiradi. Turli achish jarayonlaridan amalda sut mahsulotlarini tayyorlashda, bodring va karamlarni konservalashda, yem-xashakdan silos bostirishda foydalaniladi.



- **Ko'k-yashil suv o'tlar.** Bu bo'limga kiruvchi suv o'tlar o'simliklar dunyosining eng qadimgi vakillari hisoblanib, o'zining juda sodda tuzilishi bilan boshqa suv o'tlardan farq qiladi. Hujayra shakli yumaloq, bochkasimon, silindrsimon va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. Ko'k-yashil suv o'tlar bir hujayrali va koloniya hosil qiluvchi organizmlar bo'lib, ko'p hujayrali vakillari to'g'ri yoki bukilgan, hatto spiralsimon shakllarda mavjuddir.



- **Ossillatoriya** – oddiy ipsimon, shilimshiq pardasi bo‘lmagan hujayrasining eni bo‘yidan bir necha marta katta. Ossillatoriya ipi tanasi bo‘ylab bir xilda tuzilgan hujayralardan iborat. Sitoplazmada rangsiz *sentroplazma* va uni o‘rab olgan rangli *xromatoplazma* ajratiladi. ossillatoriya ipi alohida *gormogoniylarga* ajralib ketish yo‘li bilan ko‘payadi.



- **Nostok** – koloniya holda yashovchi suv o'ti bo'lib, koloniya yong'oq yoki olxo'ri donasi dek kattalikda shilimshiq po'st bilan qoplangan. Koloniyada sharsimon hujayralar marjonsimon, xilma-xil buralgan, ipsimon ko'ri nish larda joylashgan.

Savol va topshiriqlar

- Bakteriyalarning tuzilishida qanday o'ziga xos xususiyatlar mavjud? Bakteriyalar qanday yo'l bilan ko'payadi?
- Noqulay sharoitda bakteriyalarda qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
- Bakteriyalarning inson hayot faoliyatidagi ahamiyati qanday?
- Ko'k-yashil suv o'tlari hujayrasi qanday tuzilishga ega?
- Ko'k-yashil suv o'tlarining tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati qanday?